


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **11,9** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliqchilik xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,9** foizga oshdi.



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



110

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

2 079

Ishlab chiqarish sanoati

18

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

39

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2 246 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 100,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,9 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 102,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) ko'payishiga sabab bo'ldi va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 18,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8 %) kamayganligini ko'rish mumkin.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,8** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




2,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



7,0 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



33,3 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




13,4 foizga kamaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni





Xususiy korxonalar





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 406 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga yoki 5,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 352 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga yoki 3,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 39 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga yoki 4,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra 12 305 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 100 taga yoki 9,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 331 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 813 taga yoki 7,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1209 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 76 taga yoki 5,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra 219 tani tashkil etib, ulardan 210 tasi yoki 95,9 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 21 taga yoki 10,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatida 15 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6** foizga kamaygan




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

13




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|------------|------------|------------|------------|------------|
| Jami | 101 | 138 | 176 | 185 | 210 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 8 | 6 | 15 | 19 | 27 |
| Sanoat | 69 | 95 | 109 | 119 | 117 |
| Qurilish | 5 | 7 | 11 | 12 | 16 |
| Savdo | 10 | 19 | 25 | 23 | 28 |
| Tashish va saqlash | 4 | 5 | 4 | 4 | 4 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 | 1 | 2 | 1 | 4 |
| Axborot va aloqa | - | 1 | 2 | 1 | 2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | - | - | - | - | - |
| Boshqa turlar | 4 | 4 | 8 | 6 | 12 |

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

15


| | Jami | shundan: | |
|--------------------------|------------|--------------------|--------------------|
| | | qo'shma korxonalar | xorijiy korxonalar |
| Sirdaryo viloyati | 210 | 125 | 85 |
| Guliston sh. | 47 | 25 | 22 |
| Yangiyer sh. | 21 | 11 | 10 |
| Shirin sh. | 5 | 5 | - |
| Oqoltin | 6 | 3 | 3 |
| Boyovut | 8 | 3 | 5 |
| Sayxunobod | 13 | 9 | 4 |
| Guliston | 10 | 5 | 5 |
| Sardoba | 9 | 6 | 3 |
| Mirzaobod | 25 | 14 | 11 |
| Sirdaryo | 60 | 42 | 18 |
| Xovos | 6 | 2 | 4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 60 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,6 %), Guliston shahrida 47 ta (22,4 %), Yangiyer shahrida 21 ta (10,0 %), Mirzaobod tumanida 25 ta (11,9 %) hamda Sayxunobod tumanida 13 tani (6,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

16




2022-yil 1-avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (20,9 %), Yangiyer shahri (5,1 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (13,6 %), Sayxunobod (6,8 %), Boyovut (7,3 %), Guliston (8,7 %), Mirzaobod (7,4 %), Oqoltin (10,2 %), Xovos (4,4 %), Sardoba (13,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (20,9 %), Yangiyer shahri (4,8 %), Shirin shahri (2,2 %), Sirdaryo (14,0 %), Sayxunobod (6,9 %), Boyovut (6,9 %), Guliston (7,0 %), Mirzaobod (6,9 %), Oqoltin (11,9 %), Xovos (3,9 %), Sardoba (14,6 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,0 %), Yangiyer shahri (7,6 %), Shirin shahri (2,4 %), Sirdaryo (15,5 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (7,3 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (8,9 %), Oqoltin (6,4 %), Xovos (5,6 %) va Sardoba (6,5 %) tumanlari hissalariga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022- yil 1- avgust holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


18



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022-yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (7,7 %), Yangiyer shahri (7,7 %), Shirin shahri (5,1 %), Sirdaryo (20,5 %), Boyovut (15,4 %), Guliston (25,6 %), Oqoltin (2,6 %) Mirzaobod (15,4 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022-yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining www.sirstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrarni yuritish bo'limi
Tel.: (67) 236-86-37